**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

"Tasdiqlayman"
Ilmiy va innovatsion ishlar
bo'yicha prorektor
T.H.Rasulov
________________
____________2023 yil

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun**

# D A S T U R

**Tuzuvchi: Rasulov Z.I.**

**Buxoro – 2023 yil**

Сканировано с CamScanner

"Ingliz tilshunosligi" kafedrasida 11 oktyabr 2023 yil (07-raqamli bayonnoma) muhokama qilingan va tavsiya etilgan.

Taqrizchilar: prof. Haydarov A.A.
dos.,PhD Qosimova N.F.

Dastur Buxoro davlat universitetining ilmiy kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan ("____" _________ 2023 yil ___ - son majlis bayoni)

## KIRISH

Dasturning maqsadi – tayanch doktoranturada o'qishga talabgorlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishga layoqatini aniqlash bo'yicha o'tkaziladigan imtixon mazmuni bilan tanishtirishdan iborat.

Dasturning vazifasi – tayanch doktoranturada o'qishga talabgorlarning o'z mutaxassisligi soxasida ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borish bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlashga qaratilgan.

Mazkur imtihon dasturi talabgorlarning quyidagi yo'nalishlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashga qaratilgan savollarni o'z ichiga oladi.

- Til nazariyasi
- Kognitiv lingvistika,
- Lingvomadaniyatshunoslik,
- Lingvopragmatika
- Zamonaviy xorijiy adabiyot
- Adabiy tanqidchilik
- Adabiy oqimlar evolyutsiyasi.

Zamonaviy lingvistikada til va tafakkur, til va madaniyat, til va nutq, til va madaniyatlararo muloqot munosabatlari muhim ahamiyat kasb etganligi sababli, fanni o'qitishda til va tafakkur, til va madaniyatning o'zaro munosabatiga katta e'tibor qaratiladi.

Ixtisoslik fanidan imtixon topshiruvchi talabgorlarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yidagi talablar qo'yiladi.

**Talabagorlar:**

 tilshunoslik tarixida ro'y bergan paradigmalar siljishi, antropotsentrik paradigma xususiyatlari, zamonaviy lingvistik yo'nalishlari an'anaviy tilshunoslikdagi fanlardan farqli jihatlari; zamonaviy lingvistika fanining nazariy va amaliy yutuqlari;

zamonaviy lingvistik yo'nalishlaridagi turli nazariy qarashlar va yetakchi konsepsiyalar to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;***

 zamonaviy lingvistik yo'nalishlarining terminologik apparati, qonuniyatlari va asosiy tushunchalari, asosiy tamoyillari va ularning xususiyatlari; madaniy birliklar va ularning turlari, nutqiy akt, konsept va uning turlari, freym nazariyasi va uning tahlili; bilim tuzilmalari, axborot, kategorizatsiya, konseptualizatsiya, kognitsiya, prototip, konseptual va lisoniy dunyo tasviri; kognitiv metafora, uning turlari va verballashuv xususiyatlari; pragmatikadagi kooperatsiya tamoyili, nutqiy akt turlari, pragmatik vazifalar, kommunikativ-pragmatik hodisa, hushmuomalalik tamoyili, nutqiy aktning semantik-pragmatik xususiyatlari; zamonaviy lingvistik

Сканировано с CamScanner

yo'nalishlar bo'yicha mavzularni bilish va egallagan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

lisoniy material bilan ishlash, muayyan nazariy masalalarga oid fikrlarni bayon etishi, ayni fikrlarga nisbatan tanqidiy munosabatini shakllantirish va ifodalash; lisoniy birliklarni tahlil qilish metodlarini (kross-madaniy tahlil, konseptual tahlil, lingvopragmatik tahlil, freym tahlil, kognitiv xarita tuzish) bilish va ularni amaliyotda qo'llash, til birliklari kognitiv va madaniy tahlilini boshqa yondashuvlardan farqli jihatlarini qiyosiy tahlil qilish, til birliklarda aks ettirilgan milliy dunyo tasvirini ifoda etuvchi milliy-madaniy bo'yoqdor lisoniy birliklarni ajrata olish, ilmiy tadqiqot jarayonida dolzarb masalalarni aniqlay olishi va til birliklarini tahlil qilishda ularning yechimini topa olish, egallagan bilimlarni o'z ilmiy tadqiqot amaliyotida qo'llash ***ko'nikmalari ega bo'lishi kerak.***

- adabiyot taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy jarayonlar bilan bog'liqligi;
- zamonaviy adabiyotning metodologik tamoyillari;
- zamonaviy adabiy jarayonlar;
- badiiy adabiyot va adabiy mukofotlar;
- bestseller, muallif muvaffaqiyati va adabiy fenomenlar;
- zamonaviy adabiyot va ta'lim;
- zamonaviy adabiyot va postmodernizm;
- ayol yozuvchilar adabiyotining o'ziga xosligi;
- postkoloniallik va postkolonial diskurs;
- adabiy jarayonni tashkil etish shakllari;
- adabiyot va zamonaviylikning g'oyaviy konteksti haqida ***bilimga ega bo'lishi kerak.***

Shuningdek,

- zamonaviy adabiyot vakillari hayoti va ijodini tahlil kilish usullari;
- zamonaviy chet el adabiyotining mintaqaviy spesifikasini aniqlash;
- turli tahlil metodlaridan foydalanish;
- turli uslub va janrdagi badiiy asarlarni tahlil qilish (qiyosiy -tipologik, qiyosiy-tarixiy, germenevtik, intertekstual, stilistik, narratologik tahlillarni amalda qo'llash) ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***
- adabiy tanqidchiligi tarixi fanining evolyutsion bosqichlari;
- qadimgi davr va o'rta asrlarda adabiyotshunoslik va tanqidchilikning rivojlanish tarixi;
- zamonaviy adabiy tanqidchilikning rivojlanish tendensiyalari;
- XIX asrda asrlarda adabiyotshunoslik va tanqidchilikni rivojlanish tarixi;
- Kant va G. Gegel estetikasi;
- germenevtika taraqqiyoti;
- Z. Freyd asarlaridagi psixologik tahlilni adabiyotshunoslik va tanqidchilikka bo'lgan ta'siri;
- XX-XXI asrlarda adabiyotshunoslik va tanqidchilikni taraqiyoti;
- yirik adabiyotshunos olimlar va adabiy tanqidchilar hayoti va faoliyati hamda ularning jahon adabiyotshunosligida tutgan o'rni;
- xorijiy adabiyotshunoslik rivojlanishidagi yangi tendensiyalarni;
- adabiy muammolarni o'rganishda ilmiy yondashuvni;
- turli adabiy oqim va yo'nalishlarga tegishli tanqidiy asarlarni;
- Adabiyotshunosligi va tanqidchilik tarixida milliy maktablar faoliyati va jahon adabiyotshunosligiga qo'shgan hissasi;
- tanqidiy asarlarda epirizm, relyativizm, skeptitsizm mohiyati;
- O'zbek va MDH olimlarining chet el adabiyotshunosligi va tanqidchiligi tarixiga oid asarlarini ***bilishi kerak;***
- adabiy tanqidchilik milliy maktablarining uslublaridan foydala olish;
- formalistlar maktabi, Chikago tanqidchilik maktabi, neoaristotelizm, strukturalizm maktabi, feministik tanqidchilik, postkolonial tanqidchilik va adabiyotshunoslik, yangi tarixchilik tanqidchiliklarning namoyondalari tomonidan yaratilgan asarlar asosida tanqidiy esse va maqola yozish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***
- adabiiy oqimlar evolyusiyasi jarayoni va konsepsiyasi, xorijiy adabiyotshunoslikning hozirgi holati XX asrga qadar mavjud bo'lgan adabiy oqimlarning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;***
- jahon adabiyotida aks ettirilgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat, falsafiy va estetik qarashlarni aniqlash va tahlil qilish, adabiy oqimlardagi o'xshash va farq qiluvchi omillarni anglash, adabiyotshunoslikning asosiy prinsip, metod va atamalarini turli diskurs doirasida ***qo'llash bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- badiiy asarni stilistik tahlil qilish, turli adabiy oqimlarga mansub yozuvchilar ijodini va asarlarini tahlil qilish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

## ASOSIY QISM

### Til nazariyasi

**Tillar tasnifi.** Dunyo tillari. Tillar tasnifi. Tillarning genealogik tasnifi. Tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metod. Tillarning tipologik (morfologik) tasnifi: flektiv, agglyutinativ, ajratuvchi va mujassamlashtiruvchi tillar. Areal tasnif.

Сканировано с CamScanner

Tillarning hududiy bo'linishi. Bilingvizm. Interferensiya hodisasi. Funksional tasnif.

**Til – belgilar sistemasi.** Belgi va belgilar sistemasi tushunchasi. Semiotika. Tilda "sistema" va "struktura" tushunchalari. Belgilar sistemasining turlari.

**Til sathlari va uning birliklari.** Fonologik sath. Morfemik sath. So'z yasalishi. Leksik sath. Morfologik sath. Sintaktik sath. Gap.

**Lingvistik tadqiqot metodlari.** Tasviriy metod. Qiyosiy-tarixiy metod. Chog'ishtirish metodi. Distributiv tahlil metodi. Bevosita ishtirokchilarga ajratish metodi. Transformatsion tahlil metodi. Oppozitsiya metodi. Komponent tahlil metodi. Stilistik tahlil metodi. Statistik metod. Avtomatik tahlil metodi. Tipologik tahlil metodi.

**Tilshunoslik tarixi.** Qadimgi Hind tilshunosligi. Qadimgi Gresiya va Rim tilshunosligi. Platon. Arastu grammatikasi. Stoiklar ta'limoti (eramizdan oldingi III-I asrlar). Falsafiy va grammatik davrlar. Qadimgi Rim tilshunosligi. O'rta asrlarda Yevropa tilshunosligi (476-1492). Arab tilshunosligi. Yevropada uyg'onish davri tilshunosligi (XV-XVIII asrlar). Umumiy ratsional grammatika (Por-Royal). Slavyan mamlakatlarida tilshunoslik. XIX asr rus tilshunosligi F.I. Buslaev, A.A. Potebnya. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik. Komparativistika davrlari. V. fon Gumboldtning tarixiy-falsafiy konsepsiyasi. Til antinomiyalari. Til faoliyat sifatida. Til – xalq ruhi. Tillarning rivojlanish bosqichlari. "Yosh grammatikachilar" maktabi. Leypsig to'garagi. Moskva maktabi. Qozon maktabi. F. de Sossyur lingvistik nazariyasi. Strukturalizm. Praga lingvistik maktabi. Daniya strukturalizmi (glossematika). Amerika struktaralizmi (deskriptiv lingvistika). Sho'ro davri tilshunosligi. Hozirgi zamon tilshunosligi. XX-XXI asrlar tilshunosligining yetakchi yo'nalishlari.

**Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari.** Generativ tilshunoslik. Kognitiv tilshunoslik. Lingvistik falsafa. Pragmalingvistika. Matn lingvistikasi. Psixolingvistika. Etnolingvistika. Tipologik lingvistika. Lingvomadaniyatshunoslik. Kompyuter lingvistikasi. Korpus tilshunoslik. Ontolingvistika. Zoolingvistika. Biolingvistika. Mentalingvistika. Lingvopoetika. Matematik lingvistika. Kommunikativ tilshunoslik. Neyrolingvistika. Paralingvistika. Diskursologiya (diskurs nazariyasi). Neyrolingvistika.

**Kognitiv lingvistika**

**Paradigma ilmiy sistema sifatida**

Ilmiy paradigma tushunchasi. T. Kunning paradigmalar nazariyasi va uning fanga ta'siri. Tilshunoslik tarixidagi paradigmalar siljishi. Qiyosiy-tarixiy paradigma, uning rivojlanish tarixi va xususiyatlari hamda tilshunoslik faniga qo'shgan xissasi. Strukturalizm paradigmasi, uning rivojlanish tarixi va xususiyatlari. Strukturalizm paradigmasining tilshunoslik fani rivojlanishida egallagan o'rni.

**Antropotsentrik paradigma**

Antropotsentrizm tushunchasi. Antropotsentrik paradigma va uning xususiyatlari. Antropotsentrik paradigmaning zamonaviy tilshunoslikda egallagan o'rni va xususiyatlari. Antropotsentrik lingvistik yo'nalishlar

3-mavzu. Kognitiv lingvistika faniga kirish

Kognitiv lingvistika to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Fanning shakllanishi va rivojlanishi tarixi. Kognitiv lingvistikaning fanlararo aloqalari. Kognitiv lingvistikaning asosiy nazariy tamoyillari. Kognitiv lingvistika fanining metodologik bazasi. Kognitiv lingvistika zamonaviy tilshunoslikning yetakchi yo'nalishi sifatida. Kognitiv lingvistika doirasida chet el va O'zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar va ularning yutuqlari.

**Kognitiv lingvistika yo'nalishlari: kognitiv grammatika va kognitiv semantika**

Kognitiv semantika va uning tadqiqot obyekti. Semantik freym tushunchasi. Ch.Fillmor konsepsiyasi. Freym strukturasi. Konseptual makon (domeyn) tushunchasi va uning turlari. Kognitiv grammatika. Kognitiv semantika va uning tadqiqot obyekti. Kognitiv grammatika va uning tadqiqot obyekti.

**Kognitiv lingvistika yo'nalishlari: Kognitiv stilistika**

Kognitiv stilistika va uning tadqiqot obyekti. Kognitiv uslub tushunchasi. Stilistik vositalarning kognitiv mohiyati. Kognitiv stiliskikada kategoriyallashtirish va konseptuallashtirish muammolari.

**Konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish masalalari**

Kognitsiya tushunchasi. Olamni kognitiv idrok etish masalasi. Konseptuallashtirish (ongda konseptlar xosil qilish) tushunchasi. Konseptual tuzilmalar va konseptual sistema tushunchalari. Kategoriya va kategoriyalashtirish tushunchasi. Kategoriyalashtirish kognitiv faoliyat sifatida. Kategoriyalashtirish va idellashgan kognitiv modellar. "Oilaviy mutanosiblik" konsepsiyasi. E.Roshning prototiplar nazariyasi. Konseptual va lisoniy dunyo tasviri tushunchalari va ularning o'zaro munosabatlari.

**Bilim tuzilmalari va ularning verballashuvi**

Bilim tuzilmasi tushunchasi. Bilim tuzilmasiga turli yondashuvlar. Bilim tuzilmalari turlari va ularning xususiyatlari. Bilim tuzilmalarining tilda birliklarida aks etishi va verballashuv usullari. Bilim tuzilmalarining til birliklarida aks etishi. Bilim tuzilmalari turlari va shakllari. Bilim tuzilmalari tipologiyasi. Kognitiv model tushunchasi. Bilim tuzilmalari shakllari: geshtalt, sxema, ssenariy, skript nazariyalari va ularning xususiyatlari.

**Konsept – kognitiv lingvistikaning asosiy tushunchasi sifatida**

Сканировано с CamScanner

Konsept tushunchasi. Konsept – konseptual va tafakkur birligi sifatida. Konseptpni tadqiq etishda lingvokognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar. Konsept va ma'no. Konsept va tushuncha. Kognitiv lingvistikada ma'no interpretatsiyasi. Konseptlar va ularni tasniflash prinsiplari. Konsept bilimlar tuzilmasi sifatida. Konsept strukturasi.

**Konsept turlari va konseptni tahlil qilish metodlari**

Konsept turlari. Universal konseptlar. Milliy-madaniy konseptlar. Individual konseptlar. Strukturaviy konseptlar. Bilim tuzilmalari ifodalash tamoyiliga ko'ra konsept turlari. Konseptning verballashuv usullari. Konseptni tahlil qilish yo'llari.

**Konseptual metafora nazariyasi**

Kognitiv metafora kategoriyalashtirishni amalga oshiruvchi kognitiv faoliyat sifatida. Dj.Lakoff va M.Djonsonning konsepsiyasi. Kognitiv metaforaning universal xarakteri. Kognitiv metafora tafakkur birligi sifatida. Kognitiv metaforani o'rganishda turli yondashuvlar. Kognitiv metaforaning tilda aks etilishi. Kognitiv metaforaning turlari. Strukturaviy metafora va uning xususiyatlari. Ontologik metafora. Konteyner metafora. O'zatuvchi metafora va uning xususiyatlari.

**Konseptual integratsiya nazariyasi**

Konseptual integratsiya nazariyasi. konseptual integratsiya nazariyasining shakllanishi. Konseptual integratsiya nazariyasini amalga oshirish mexanizmi. Blend tushunchasi. Input tushunchasi. Kross-domeyn tushunchasi.

**Axborotni til birliklarida taqsimlash tamoyillari**

Kognitiv lingvistikada konseptual axborot tushunchasi. Konseptual axborotning til birliklarida taqsimlanishi va ularni tadqiq etish Konseptual axborotning verballashuv usullari va ularning xususiyatlari. Mos kelish (relevantlik) tamoyili va uning xususiyatlari. Ikoniklik tamoyili va uning xususiyatlari. Ikoniklik tamoyili va uning turlari. Tildagi tejamkorlik va otriqchalik tamoyili va ularning xususiyatlari. Til birliklarida taqsimlangan axborotni tahlil qilish va axborotni yuzaga chiqarish usullari.

**Konseptual tahlil metodlari**

Kognitiv modellashtirish metodi. Kognitiv xarita tuzish texnikasi. Konseptual tahlil metodi. Konseptual metaforik tahlil metodi va uning texnikasi. Til birliklarining freym tahlili va uni ko'llash texnikasi.

## Lingvomadaniyatshunoslik

**Til – madaniyat – elat masalasining tilshunoslikdagi muammosi**

Til madaniyatni aks etuvchi vosita sifatida. V.fon Gumboldt, B. Uorf, E. Sepir konsepsiyalari va nazariyalari. Sepir-Uorfning lingvistik mutanosiblik nazariyasi. Til madaniy kodni verballashtiruvchi vosita sifatida (A.A. Potebnya, Levi-Stross, F.I. Buslaev) nazariyalar. Tilshunoslikdagi lingvomadaniy maktablar (Yu.S. Stepanov, N.D. Arutyunova, V.N. Teliya, V.V. Vorobev).

**Lingvomadaniyatshunoslik fan sifatida va uning o'rganish ob'ekti va asosiy tushunchalari**

Lingvomadaniyatshunoslik fani rivojlanishining asosiy bosqichlari va yo'nalishlari va uning tilshunoslikda egallagan o'rni. Til va madaniyat o'zaro bog'liqligi masalasi. Lingvomadaniyatshunoslik fanining maqsadi va vazifalari. Lingvomadaniyatshunoslik fanining o'rganish ob'ekti va asosiy tushunchalari. Lingvomadaniyatshunoslik fani doirasida chet el va O'zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar va ularning yutuqlari.

**Lingvomadaniyatshunoslik fanining yo'nalishlari**

Lingvomadaniyatshunoslik fanining an'anaviy va zamonaviy lingvistik fanlar bilan bog'liqligi. Lingvomadaniyatshunoslikning yo'nalishlari: diaxronik lingvomadaniyatshunoslik va uning tadqiqot ob'ekti, chog'ishtirma lingvomadaniyatshunoslik va uning tadqiqot ob'ekti, lingvomadaniy leksikografiya va uning tadqiqot ob'ekti.

**Qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik fan sifatida**

Qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik fani rivojlanishining asosiy bosqichlari va yo'nalishlari. Qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik fanining maqsadi va vazifalari. Qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik fanining o'rganish ob'ekti va asosiy tushunchalari. Madaniyat turlari va ularning xususiyatlari.

**Lisoniy va milliy dunyo tasvirlari tushunchalari**

Dunyo tasviri tushunchasi. Dunyo tasviri shaxs va ijtimoiy ong asosini tashkil etuvchi dunyo to'g'risidagi bilimlar majmui sifatida. Dunyo tasviri turlari va ularning xususiyatlari: konseptual dunyo tasviri, lisoniy dunyo tasviri, milliy dunyo tasviri. Lisoniy va milliy dunyo tasvirining aksiologik jihati. Lisoniy dunyo tasvirni tahliy qilish metodlari. Milliy dunyo tasvir va uning xususiyatlari. Milliy dunyo tasvirlari turlari. Milliy dunyo tasvirini verballashtiruvchi lisoniy birliklar

**Lingvokulturema – lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tushunchasi sifatida**

Milliy-madaniy xususiyat tushunchasi. Milliy-madaniy xususiyatga ega til birliklar. Lingvokulturema tushunchasi. Lingvokulturema o'z ichiga shakl va ma'noni oluvchi sathlararo birlik sifatida. Lingvokulturema madaniy birlik sifatida. Lingvokulturema turli til shakllari orqali ifoda etilishi.

**Lingvokulturema turlari va shakllari**

Lingvokulturema turlari va ularning xususiyatlari. Realiya tushunchasi va uning turlari. Frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari. Maqollarning milliy-madaniy xususiyatlari. Stilistik vositalarning milliy-madaniy xususiyatlari.

Сканировано с CamScanner

Aforizmlar milliy dunyoni aks etuvchi til birliklari sifatida. Lingvokulturemalarning qiyosiy tadqiqi.

**Milliy-madaniy xususiyatga ega til birliklarining qiyosiy tadqiqi**

Chet tili va ona tilidagi milliy-madaniy xususiyatga ega lisoniy birliklarning qiyosiy tadqiqi: ekvivalentsiz leksika, realiyalar; mifologik til birliklari; paremiologik til birliklari; frazeologik birliklar; etalonlar, stereotiplar, simvollar; metafora va obrazlar (timsollar); tillarning stilistik qatlami (adabiy va noadabiy shakllar va h.k.);

**Nutq etiketining milliy-madaniy xususiyatlari**

Nutq etiketi va uning turlari (salomlashish, xayirlashish, buyruq berish, iltimos etish, kechirim so'rash va hk.). Nutq etiketining milliy-madaniy xususiyatlari. So'zlashuv odobi va fe'l-atvor. Nutq etiketining qiyosiy tadqiqi.

**Lingvomadaniy tadqiq metodlari**

 qiyosiy-chog'ishtirma – bu metod lisoniy birliklarning farqli va o'xshashlik taraflarini aniqlashga yo'naltirilgan;

 komponent tahlil – ushbu metod o'rganilayotgan lingvomadaniy birliklarning leksik sathda verballashuvidagi paradigmatik va sintagmatik aloqalarini aniqlashga qaratilgan;

 kross-madaniy tahlil metodi turli tilllardagi lisoniy birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan;z

 tavsifiy-analitik - bu metod kuzatish, taqqoslash va umulashtirishni o'z ichiga oladi hamda daliliy materiallarni yig'adi va ularning klassifikatsiyasi bilan shug'ullanadi;

 tadqiq etilayotgan til birliklari semantikasini o'rganishga qaratilgan semantik tahlil metodi

## Lingvopragmatika

**Lingvopragmatika faniga kirish**

Lingvopragmatika zamonaviy lingvistik yo'nalish sifatida. Lingvopragmatika fanining shakllanishi va rivojlanishi tarixi. Lingvopragmatika fanining maqsadi, o'rganish ob'ekti va asosiy tushunchalari.

**Nutqiy akt nazariyasi va xushmuomalalik tamoyili**

Nutqiy akt nazariyasining shakllanishi va rivojlanish tarixi. Nutqiy akt tushunchasi va turlari: lokutiv, illokutiv, perlokutiv aktlar. Performativ nutqiy aktlar. Nutqiy stereotip. Xushmuomalalik nutqiy qoidalar sifatida (R.Lakoff, Dj. Lich, G. Grays). Xushmuomalalik kategoriyasining maksimalari (sahovat maksimasi, rozilik maksimasi, simpatiya maksimasi, kamtarlik maksimasi va xk.). Xushmuomalalik turlari va ularning turlari. Ijobiy va salbiy xushmuomalalik. Xushmuomalalik diskurs sifatida (R. Uotts nazariyasi).

**Implikatura nazariyasi, nutqiy ta'sir va manipulyatsiya**

Implikatura nazariyasining asosiy holatlari. Implikaturalar turlari: konvensional implikaturalar, nokonvensional implikaturalar. Nutqiy ta'sir qo'rsatish turlari. Manipulyatsiya tushunchasi va strategiyalari. Kommunikativ strategiyalar va taktikalar. Nutqiy aktning pragmatik xususiyatlari.

**Adresat va adresant faktorlari.**

Kommunikativ-pragmatik hodisa tushunchasi. Pragmatik vazifalar turlari. Adresat va adresant faktorlari. Lingvistik va ekstralingvistik faktorlar. Kontekst, shakl, muloqot ohangi va maqsadi, yetkazish va qabul qilish vositalari. Kommunikativ aktning pragmatik effektivligi. Kommunikativ strategiyalar va taktikalar.

**Lisoniy shaxs nazariyasi**

Badiiy matnning o'ziga xosliklari. Lisoniy shaxs tushunchasi. Lisoniy shaxs turlari. Lisoniy shaxsning tarkibiy qismlari va strukturasi. Lisoniy shaxsning kognitiv qatlami. Lisoniy shaxsning semantik-stilistik qatlami. Lisoniy shaxsning lingvopragmatik qatlami. Lisoniy shaxsning lingvokulturologik qatlami. Lisoniy shaxsni ifoda etuvchi til birliklari va ularning xususiyatlari. Lisoniy shaxsni tahlil etish metodikasi.

**Muloqot va uning turlari. Kooperatsiya tamoyillari**

Muloqotning turlari. Kommunikativ aktni tushunish va to'g'ri qo'llash. Kommunikativ barer tushunchasi va uni yengish taktikalari. Kooperatsiya tamoyilining asoslari va uning insonlararo muloqotdagi urni. Kooperatsiya tamoyilining asosiy maksimalari. Miqdor maksimasi, sifat maksimasi, relevantlik maksimasi, uslub maksimasi.

**Noverbal muloqot va uning vazifalari**

Noverbal muloqotning verbal muloqotdan farqli jihatlari, xususiyatlari va vazifalari. Muloqotni noverbal tashkil kilish shakllari va uni tushunishda yo'l qo'yiladigan potensial pragmatik xatolar.

**Xalqaro va sohalararo muloqot**

Xalqaro muloqotdagi ijtimoiy-etiket omillari. Biznes va ommaviy axborotga xos muloqot turlari. Pragmatik muvaffaqiyatsizliklar. Muloqotni pragmatik muvaffaqiyatli tashkil etishda hisobga olinadigan 8 aspekt: kachon va nimani qanday gapirish normalari, tezlik va pauza holati, tinglash madaniyati, intonatsiya va ohanglilik, uslubiy xosliklar, fikrni zohiran tahlil qilish, mantiqiy bog'lilik) haqida tushuncha berish.

**Og'zaki va yozma diskurs xususiyatlari.**

Сканировано с CamScanner

Diskurs tushunchasi va uning rivojlanish tarixi. Bugungi kunda qo'llaniladigan diskurs tushunchasiga oid sharhlar. Diskurs turlari. Diskurs tahlili. Lingvistik yo'nalishlarga ko'ra tahlil kilinadigan diskurs taksonomiyasi. Og'zaki diskurs xususiyatlari. Og'zaki diskursning Xaym jadvali (vaziyat, vaqt, joy, ishtirokchilar, maqsad, janr,natija)ga ko'ra tahlili. Yozma diskurs shakllari va tahlili, uning og'zaki diskursdan farqi.

**Ijtimoiy tarmoqdagi diskurs**

Ijtimoiy tarmoqdagi diskursning o'ziga xosligi va uning kompyuter vositasida olib boriladigan sxema tahlili (Computer medidated scheme). Sinxronlik, davomiyliy, tarmoq shakli va ishtirokchilari, ma'lumot hajmi va formati, ommaga taqdim etish darajasi. Virtual muloqot uchun vujudga kelgan abbreviaturalar va yangi so'zlar

**Jamoaviy munosabatlarining pragmatik aspekti**

Shaxsni jamiyatdagi rolini belgilashda diskursning roli. Buxoltz prinsiplari: shaxsning jamoaviy munosobatlarga kirishidagi dastlabki bosqich, muloqot vazifasi va turlari, g'oyalar va ularning sharhi, o'zaro bog'liqlik va subordinatsiya, ma'naviy va madaniy karashlar roli, shaxsiy diskurs shakliga ko'ra belgilangan 7 imidj. O'z nutqini chiroyli taqdim qilish normalari. "Sen nomli brend" tushunchasi tahlili. Rezyume, intervyu va motivatsion xatlar yozishdagi asosiy normalar va maslahatlar

**Rahbarlik va gender diskursining pragmatik jihati**

Shaxs qudrati va salohiyatini belgilashda diskurs roli. Siyosiy diskurs va ideologiya. Lider rolini yaratishda xizmat qiladigan diskurs va nutqiy aktlar tahlili. Gender diskurs haqida umumiy tushuncha. Ayol va erkak nutkidagi farqlar tahlili. Gender tushunchasiga umumiy tavsif. Feminizm hodisasi. Gender diskursi tahlili uchun Koats tavsiya etgan 3 yondashuv: Dominantlik, Differensial va Ijtimoiy konstruktivizm.

### Zamonaviy xorijiy adabiyotshunoslik

**Zamonaviy xorijiy adabiyot fan sifatida**. Zamonaviylik chegarasi. Zamonaviy adabiyotning metodologik tamoyillari.Zamonaviylik chegarasi. Zamonaviy adabiyotning metodologik tamoyillari. Adabiyot va siyosat asrlar silsilasida. Bestseller, muallif muvaffaqiyati va adabiy muvaffaqiyat fenomenlari. Zamonaviy adabiy jarayonlar. Badiiy adabiyot va adabiy mukofotlar instituti. Zamonaviy adabiyot va adabiy tanqid. Zamonaviy adabiyot va ta'lim. Zamonaviy adabiyot va postmodernizm. "Postmodernizm" atamasi ma'nosining falsafiy va adabiy assimetriyasi. Adabiyot, modernizm va postmodernizm. Postmodernizm konsepsiyasining shakllanishi. Postmodernizm va "O'zga" muammosi. Adabiyot va feminizm. Feministik adabiyot. Postkoloniallik va postkolonial diskurs. Adabiyot va hokimiyat. Adabiy jarayonni tashkil etish shakllari. Adabiy jurnallar. Adabiy mukofotlar tizimining ahamiyati. Adabiyot va zamonaviylikning g'oyaviy konteksti. "Non fiction" adabiyoti. Zamonaviy adabiyotda muhabbat. Zamonaviy adabiyotda shahar obrazi. Zamonaviy tarixiy roman. Buyuk Britaniya va Irlandiya zamonaviy adabiyoti. Zamonaviy jahon adabiyoti vakillari.

### Adabiy tanqidchilik

Adabiy tanqidchilik tarixining rivojlanish jarayonlari. Chet el adabiyotshunosligi va adabiy tanqid tarixi fanining evolyusion bosqichlari.

**Qadimgi davr va o'rta asrlarda adabiyotshunoslik va tanqidchilikni rivojlanish tarixi**

Platon va Aristotel. Antik davr tanqidchiligi. Ritorika va sofistika. Neoplatonizm. Klassik davr tanqidchili.O'rta asrlar tanqidchiligi namoyondalari Dante Aligeri va Jovanni Bokkachcho.

**Uyg'onish davri va Ma'rifatparvarlik adabiyotshunosligi va tanqidi**

Filip Sidni. Neoklassik adabiy tanqidchilik. Jon Drayden, Aleksandr Pop, Samuel Jonson. Ma'rifatparvarlik davri. Jon Lok, Jozef Eddison, Devid Xyum, Meri Uolstounkraft va feminizm masalalari.

**19 asrda adabiyotshunoslik va tanqidchilik rivojlanishi tarixi**

Kant va G. Gegel estetikasi. Germaniya va Fransiya romantizmi F.Shiller, F. Shleymaxer. Angliya va AQSh romantizmi. S. Kulridj, R.Emerson, E.Po. Realizm va naturalizm. J.Eliot, E.Zolya, U.D. Xouels, X.Jeyms. Simvolizm va estetizm. Ch. Bodeler, U. Peter, O.Uayld. Geterologik tanqid. Artur Shopengauer, F. Nisshe, X. Bergson , M.Arnold, T.Iglton.

**XX asrda asrlarda adabiy tanqidchilik taraqqiyoti**

Z.Freyd asarlaridagi psixologik tahlilini adabiyotshunoslik va tanqidchilikka bo'lgan ta'siri. Formalistlar maktabi. V.Shklovskiy, B.Eyxenbaum, M.Baxtin, R.Yakobson, T.S. Eliot, J. Rensom va boshqalar. Chikago tanqidchilik maktabi namoyondalari. Neoaristotelizm. Strukturalistlar maktabi namoyondalari F. De Sossyur, R. Bart. Dekonstruksiya va J. Derrida ilmiy ishlari. Postkolonial tanqidchilik va adabiyotshunoslik. Yangi tarixchilik tanqidchiligi. Kitobxonlar (retseptiv) tanqidchiligining rivojlanshi.

**XX asrda asrlarda feministik tanqidchilikning rivojlanishi**

Feministik tanqidchilik va gender muammolarni adabiyotda yoritilishi. Feministik adabiyoti rivojlanshining tarixiy bosqichlari. V. Vulf, E. Shouvolter, Yu. Kristeva va boshqalar. Sandra Gilbert va Syuzen Gyubar tadqiqotlarini feminizmga bo'lgan ta'siri.

**XX1 asr chet el adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligi tarixi**

Сканировано с CamScanner

XXI asr tanqidchiligida sinergetika, globallashuv, milliylik singari masalalarga e'tibor qaratiladi. Bayoz, namuna, xotiralar, adabiy tanqidchilikda biografik metod; hasbi hol, manoqib, tanqidiy ocherk, adabiy portret, badiiy lavhalar. Adabiy tanqid, nasr, nazm singari o'z mustaqil janrlariga ega ekanligi. Tanqidning maqola, portret, ocherk singari janrlarida ko'plab asarlar yaratilganligida XXI asr tanqidchiligida badia, xotira singari janrlarning avj olayotganligi.

## Adabiy oqimlar evolyusiyasi

Adabiiy oqim tushunchasi. Adabiiy oqimlar evolyusiyasi jarayoni. Adabiy oqimlarning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari.

**XX asrga qadar mavjud bo'lgan adabiy oqimlarning rivojlanish bosqichlari**

Adabiiy oqimlar rivojlanish jarayoni va konsepsiyasi, turli nazariyalar. Adabiiy oqimlarning hozirgi holati. Adabiy oqimlarning paydo bo'lishi. O'rta asrlarda adabiy oqimlar. Insonparvarlik konsepsiyasida muallifning o'rni. Uyg'onish davri adabiy oqimlar. Insonparvarlik adabiyotshunosligi. Ingliz va Amerika adabiyotida romantizm, va Ma'rifatparvarlik adabiyotshunosligi. Ingliz va Amerika adabiyotida romantizm, realizm va yangi oqimlarni o'ziga xosligi.

**XXasr adabiyotida yangi oqimlarni paydo bo'lishi**

Birinchi jahon urushidan keyin adabiy oqimlar taraqqiyoti. Dekadans va uni adabiyotga bo'lgan ta'siri. Naturalizm, pozitivizm, freydizm, pragmatizm, estetizm yo'nalishlarining ahamiyati. Adabiyotda yangi "-izm" larni paydo bo'lishi – abstraksionizm, kubizm, futurizm, populizm, dadaizm, ekzistensializm, syurrealizm, simvolizm. Poyavlenie "Eskepizm"ning paydo bo'lishi. G'arbiy va Amerika modernizmi taraqqiyoti. "Yo'qotilgan avlod" yozuvchilarining "private worldism" falsafasi.

**Realizmning adabiyotdagi yangi shakllari va turlari**

G'arb adabiyotida realizm va modernizmning yangi qo'rinishi. "Klassik realizm" va "Yangi realizm" o'rtasidagi farqlar. Yozuvchilar asarlarida insonparvarlik konsepsiyasining talqini. Yozuvchining badiiy uslubi va asarning narratologik xususiyatlari ("ong oqimi", "ichki monolog", "retrospesiya", "prospeksiya"). Realizmda klassik an'analarning yo'qotilishi. O'zgarishlarning xususiyatlari va sabablari. Realizm va modernizm o'rtasidagi tafovut va yozuvchilarning pozitsiyasi.

**Realizmning mohiyati va asosiy tamoyillari**

Realizmning oqimining yirik namoyondalari: X. Xesse, G. Grin, J. Apdayk. Ularning jahon adabiyotiga qo'shgan hissasi. Realizmning yangi qirralari, badiiy xususiyatlarning roli. "Kentavr" (D.Apdayk) romanida fantastika. Afsona va haqiqat birlashuvi. Insonparvarlik g'oyasining paydo bo'lishi va uning adabiyotda aks etishi. "Turmush nasri" (J.Apdayk) asarining g'oyaviy-badiiy o'ziga xosligi.

"Cho'l bo'risi" (Xesse) asarining shakliy murakkabligi va uning falsafiy mazmuni. Xesse ijodida inson konsepsiyasi va uning modernizmdan farqi.
G. Grinning "Monsinor Kixot" romanida grotesk, parodiya va paradoks. Paradoks – Gringa xos usul. Grin ijodida ispan motivlari. Romanda tarix konsepsiyasi va insonparvarlik g'oyalari.
XX – XXI asr mashhur realist yozuvchilarning asarlari asosiy g'oyasi va badiiy qiymati. (D.Irving, Y.Makyuen, D.Barns, K.Bakli, Y.Benks va b.)

**Modernizm oqimi**

Modernizm oqimi haqida. XX asr yetakchi modernistlari ijodi. Jeyms Joys va uning "Ullis" romani. Badiiy eksperiment muammosi. Romandagi g'oyaviy qarama-qarshilik. T. S. Eliot sh'riyatining o'ziga xos xususiyatlari. M. Prustning novatorligi. Psixologik nasrning yangi turi. F Kafka ijodida olam va inson tushunchasi ("Evrilish" povesti. "Jarayon" va "Qasr" romanlari va hikoyalari).

**Adabiyotda ekspressionizm**

Yetakchi ekspressionist-shoirlar ijodi (I. Bexer, F. Veyfel) Ekzistensionalizm falsafasi va uning badii adabiyotdagi ko'rinishi. J. P. Sartrning "Ko'ngil aynishi" romanidagi falsafiy qarashlar. A. Kamyuning "Vabo" romani ekzistensional g'oyalar namunasi sifatida.

**Ikkinchi jahon urushidan keyin xorijiy adabiyotda falsafiy qarashlarning ifodalanishi**

Ikkinchi jahon urushidan so'ng G'arb adabiyotidagi falsafiy motivlar. G'arb falsafasi – falsafiy antropologizm (neotomizm, ekzistensializm, strukturalizm)dagi yangi oqimlar. Falsafiy adabiyot va falsafiy tendensiyalarga yo'g'rilgan adabiyot. "Zamon" va "Makon" masalasi. "Zamon" va "Makon" muammolarining turli izoh va tushunchalar orqali adabiyotda ifodalanishi. Fan taraqqiyoti va adabiyot. Ekzistensializm falsafasining adabiyotga ta'siri. Italian (I. Kalvino), fransuz (J-P Sartr, A. Kamyu), ingliz (Ayris Merdok) va nemis (Gyuntera Grass) adabiyotida ekzistensializm falsafasining xususiyatlari. Insonni o'z taqdiri uchun va jamiyatdagi o'zgarishlar uchun ma'sulligi ahamiyati talqini.

**Postmoderizm oqimi**

Postmodernizm haqida tushuncha. Turli yondashuvlar. Jahon adabiyotida postmodernizm konsepsiyasi. Zamonaviy adabiyotda postmodernizm. Yozuvchi va shoirlar ijodida postmodernizm ko'rinishlari. Oqimga xos xususiyatlar tahlili. Postmodernizmning taniqli vakillari.

**Ikkinchi jahon urushidan keyin naturalizmning yangicha talqini**

Naturalizm tushunchasi. Naturalizmni 19-asrning 50-60-yillarida shakllanishi va taraqqiyoti. Naturalizm adabiy oqim va uslub sifatida rivojlanishi. 19 va 20 asrda

Сканировано с CamScanner

naturalizm talqinida turli yondashuvlarni paydo bo'lishi. Naturalizm va realizm. Ilm, fan taraqqiyoti va naturalizm. Naturalistik uslubning yozuvchilar ijodida qo'llanilishi (Stiven King, R. Xouki, J. Xemmil, Peddi Chaefski)

**Zamonaviy realistik adabiyotda inson ichki olamini ochib berish yo'llari va usullari**

19 - 20 asrlar adabiyotida inson ichki olamini ochib berish yo'llari va usullarining farqi. J Joys «Uliss» asarining psixologizmi.

Z. Freydning psixologiya fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, uning adabiyotga bo'lgan ta'siri va shaxsning ichki dunyosini ifodalashda qo'llanilishi. Adabiyotda psixologik tahlil. Inson ichki dunyosini ifodalashda yangi uslub va usullar. J. Faulz, Grem Grin, Martin Valzer asarlarida inson psixologiyasi, ichki dunyosini ochib berish xususiyatlari, bunda realistik va modernistik estetik qarashlarnining ahamiyati.

**Zamonaviy adabiyotda ramzning roli**

Zamonaviy adabiyotda ramzning roli. Roman, qissa va hikoyalarda ramzning turli shakllari. Badiiy adabiyotni nomlashda ramziy ma'no. Allegoriya, ramz – badiiy matn va syujetning asosi sifatida. Hujjatli roman shakllanishi va badiiy asar nomlarida ramzning qo'llanilishi. Ramz ma'nosi va axamiyati (E. Doktorou). Zamonaviy ingliz adabiyotida ramz va allegoriya(G. Svift).

**"Yangi jurnalizm" va hujjatli roman taraqqiyoti**

Realizmning 20 asrdagi yangi qo'rinishlari. "Yangi jurnalizm" tushunchasi, turli shakllari, uslublari va ijtimoiy ahamiyati. "Yangi jurnalizm"ning dolzarbligi. Jurnalistika va adabiyot (Tomas Vulf, Normann Meyler, Trumen Kapote). Hujjatli roman yaratilishining to'rt sharti – voqealarni shaxsan kuzatish, dialoglar mazmunini berish, uchinchi shaxs nomidan xabar berish, vaziyatni to'laligicha kuzatish. Tasvirlanayotgan voqeani ifodalash usullari – kontrapunkt va polifoniya. Zamonaviy adabiyotda yangi uslublar. "Zamon" muammosiga yangicha yondashuv. Tarixiy, milliy, madaniy va ijtimoiy xodisalarni "Yangi jurnalizm"da ifodalanishi.

**XX-XXI asrlarda yangi adabiy uslubiy tizimining shakllanishi**

XX-XXI asr yozuvchilarining falsafiy qarashlari tufayli shakllangan ijodiy uslubning o'ziga xosligi. "Vaqt" tushunchasining yangi talqini. Yozuvning yangi shakllari – montaj, vaqt surilishi, erkin uslub, epizodlarni mantiqiy o'zaro ulanmasligi va boshqalar. Zamonaviy ingliz va amerika yozuvchilarning yozish uslubining xususiyatlari va farqi. Borliqni hujjatli aniq tasvirlash

**Zamonaviy adabiyotda "Vaqt" va "Fazo"**

"Fazoviy" mavzularning adabiyotga kirib kelishi. Ilmiy fantastika taraqqiyoti. Eynshteyning "Vaqt" va "Fazo" nazariyasi tushunchalarining ilmiy fantastikaga ta'siri. O'tgan, hozirgi va kelasi zamonlarning fantastik asarlarda uyg'unligi. Realist yozuvchilar asarlarida "vaqt" tushunchasining talqini.

## Asosiy adabiyotlar

### Til nazariyasi bo'yicha


1. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – T., 2008.
2. Yo'ldoshev I., Muhamedova S., Sharipova O'., Madjidova R. Tilshunoslik asoslari. – T., 2007/2013.
3. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Umumiy tilshunoslik. – T., 2007.
4. Muhamedova S., Yo'ldoshev I., Madjidova R., Sharipova O'., To`xtamatov X. Tilshunoslik asoslari. – Elektron darslik.
5. Maslov Yu.S. Vvedenie v yazыkoznanie. – M., 2007.
6. Reformatskiy A. Vvedenie v yazыkoznanie. – M., 2006.
7. Popova Z.D., Sternin I.A. Obщee yazыkoznanie. – M., 2007.
8. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – T., 2007/2010.
9. Sharafutdinova N.S. Teoriya i istoriya lingvisticheskoy nauki. – M., 2007.
10. William B. McGregor. Linguistics. An introduction. – New York, Bloomsbury Academic Press, 2015. 430 p.
11. Keith Allan. The Oxford Handbook of the History of Linguistics, Oxford University Press London, 2013


### Zamonaviy xorijiy adabiyot bo'yicha


1. Teoriya literaturы. Uchebnoe posobie: v 2-t./Pod red. Tamarchenko N.D. 2004. M.:-Akademiya
2. Liliana Sikorska. An outline history of English literature. 2003, 529p
3. Oxford companion to English literature. Margaret Drabble. Oxford University press. 2000.
4. Richard Gray. A History of American Literature. Second Edition. Blackwell Publishers Ltd (1e, 2004)


### Zamonaviy tilshunoslik bo'yicha

**Ingliz tili**

Сканировано с CamScanner

1. Mey J.L. Pragmatics. An Introduction. 2nd edition. –Oxford., Blackwell Publishing LTD, 2004
2. Evans V., Green M. Cognitive Linguistics. An Introduction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006
3. Ashurova D.U., Galieva M.R. Cognitive Linguistics. – Tashkent, VneshInvestProm, 2018
4. Ashurova D.U., Galieva M.R. Cultural Linguistics. – Tashkent, VneshInvestProm, 2019

5. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik. – Samarqand: Sangzor nashriyoti, 2006. – 92 b.
6. Maslova V.A. Lingvokulturologiya, -M., 2004, 2007
7. Kratkiy slovar kognitivnых terminov//E. S. Kubryakova, V. Z. Demyankov, Yu. G. Pankras, L. G. Luzina Pod obщ. red. Ye. S. Kubryakovoy, – M.: Filologicheskiy fakultet MGU im. M. V. Lomonosova, 1996

**Fransuz tili**

8. Maslova V.A. Kognitivnaya lingvistika. - M., 2004
9. Maslova V.A. Lingvokulturologiya, -M., 2004, 2007
10. Maslova A.Yu. Vvedenie v pragmalingvistiku. Uch. pos. M.: Flinta: Nauka, 2007. – 152 s.
11. Ter-Minasova S.G. Yazыk i mejkulturnaya kommunikatsiya. –M.: Slovo. – 264 s.
12. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik. – Samarqand: Sangzor nashriyoti, 2006. – 92 b.
13. Safarov Sh.S. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 286 b.

**Nemis tili**

1. Adamcova L. Moderne Linguistik. Wien. 2005.
2. Hamid Reza Yousef. Grundbegriffe der interkulturellen Kommunikation. München. 2014.
3. Rickheit G u.a. Kognitive Linguistik. Theorien, Modelle, Methoden. Tübingen. 2010.
4. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik. – Samarqand: Sangzor nashriyoti, 2006. – 92 b.
5. Safarov Sh.S. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 286 b.
6. Maslova V.A. Lingvokulturologiya, -M., 2004, 2007

**Ispan tili**

1. Xosé Ignacio Hualde. Introduccion a la Lingüstica Hispanica.España 2016

2. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik. – Samarqand: Sangzor nashriyoti, 2006. – 92 b.
3. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik. – Samarqand: Sangzor nashriyoti, 2006. – 92 b.
4. Safarov Sh.S. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 286 b.
5. Kratkiy slovar kognitivnых terminov//E. S. Kubryakova, V. Z. Demyankov, Yu. G. Pankras, L. G. Luzina Pod obщ. red. Ye. S. Kubryakovoy, – M.: Filologicheskiy fakultet MGU im. M. V. Lomonosova, 1996
6. Maslova V.A. Lingvokulturologiya, -M., 2004, 2007

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz.
2. Ashurova D.U., Galieva M.R. Stylistics of Literary Text. -Tashkent. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2013.
3. Boldыrev N. N. Kognitivnaya semantika. – Tambov: Izd-vo TGU im. G. R. Derjavina, 2001.
4. Grays G.P. Logika i rechevoe obщenie // Novoe v zarubejnoy lingvistike. Vыp.16. Lingvisticheskaya pragmatika. –M.: Progress, 1985.
5. Kubryakova Ye.S. Tipы yazыkovых znacheniy. Semantika proizvodnogo slova. M., Nauka, 1981
6. Deyk T. A. van. Yazыk. Poznanie. Kommunikatsiya. Per. s angl./Pod red. V.I. Gerasimova. – M.: Progress, 1989.
7. Demyankov, V.Z. Kognitivnaya lingvistika kak raznovidnost interpretiruyuщego podxoda. www.infolex.ru
8. Kovshova M.L. Lingvokulturologicheskiy metod vo frazeologii. Kodы kulturы. M., 2013
9. Karasik V. Yazыkovoy krug: lichnost, konseptы, diskurs. –M.: Gnozis, 2004
10. Kolshanskiy G.V. Ob'ektivnaya kartina mira v poznanii i yazыke. – M.: Nauka, 1990
11. Lakoff Dj., Djonson M. Metaforы, kotorыmi mы jivem/Pod red. A.N. Baranova. –M.: Izdatelstvo LKI, 2008.
12. Matveeva G.G., Lenes A.V., Petrova Ye.I. Osnovы pragmalingvistiki. M.: Flinta, Nauka, 2013.
13. Popova Z. D., Sternin I. A. Kognitivnaya lingvistika. – M.: Vostok Zapad, 2007. – 314 s.
14. Ashurova D.U. Proizvodnoe slovo v svete kommunikativnoy teorii yazыka. - Tashkent, 1991

Сканировано с CamScanner

15. Aznaurova E.S. Pragmatika xudojestvennogo slova. T., Fan, 1988
16. Claus Ehrhardt, H.J. Heringer. Pragmatik. Paderborn. 2011.
17. Hans Jürgen Heringer, Interkulturelle Kommunikation. Tübingen. 2010.
18. Ursula Kantoreczyk u.a. Pragmatik vom Aufforderungen im Deutschen. Rostock. 2008.
19. Schwarz M. Einführung in die Kognitive Linguistik. Tübingen. 2008.
20. Riechl G. M. Mehrsprachigkeit. Eine Einführung. Darmstadt. 2014.
21. Popova Z. D., Sternin I. A. Kognitivnaya lingvistika. – M.: Vostok Zapad, 2007. – 314 s.
22. Maslova V.A. Kognitivnaya lingvistika. - M., 2004
23. Maslova A.Yu. Vvedenie v pragmalingvistiku. Uch. pos. M.: Flinta: Nauka, 2007. – 152 s.

**Axborot manbalari**

24. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
25. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
26. www.mineconomy.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)
27. www.mehnat.uz (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi)
28. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
29. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)
30. www.ima.uz (O`zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)
31. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)
32. www.cognitivelinguistics.org
33. www.degruyter.com
34. www.infolex.ru
35. www. quiben. org/semantica-y-lexicologie
36. www. catalunyaonline. com/.
37. www.daf.uni-mainz.de/Bibliographien/bibtext.htm
38. www. filologia_hispanica
39. www.ngr. es/pages/estudios/titulaciones/
40. www.cognitivelinguistics.org
41. www.degruyter.com
42. www.infolex.ru
43. www. quiben. org/semantica-y-lexicologie
44. www. catalunyaonline. com/.
45. www.daf.uni-mainz.de/Bibliographien/bibtext.htm
46. www. filologia_hispanica
47. www.ngr. es/pages/estudios/titulaciones/

## Adabiyot tanqidchilik bo'yicha

**Asosiy adabiyotlar**

1. M. A. R. Habib. Modern literary criticism and theory.The history. Blackwell Publishing 2005, pp838.
2. Julian Wolfreys. Introducing literary theories. Guide and glossary. Edinburgh University Press. 2001, 332p.
3. Terry Eagleton. Literary Theory. An Introduction. Blackwell Publishing.1996, 248p.
4. The Penguin dictionary of literary terms and literary theory. Penguin Books, 1999, p. 561.
5. The Routledge Dictionary of Literary Terms. Taylor & Francis, London and New York 2006.. p.157

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Angliyskaya literatura ot 19 veka k 20, ot 20 k 21. Problema vzaimodeystviya literaturnых epox. – M.: IMLI RAN, 2009g., 568 str., str. 436
2. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. -M. : Iskusstvo, 1979. - 424 s
3. Baxtin. M.M. Voprosы literaturы i estetiki: Issledovaniya raznых let.- M., 1975.
4. Baxtin. M.M. Literaturno-kriticheskie stati.- M.: «Xudojestvennaya literatura», 1986.
5. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari.-T., O'zbekiston. 2000.
6. Volkov I. Teoriya literaturы.-M. , 1995.
7. Davыdova T.T., V.A. Pronin. Teoriya literaturы. Moskva, «Logos»,2003g., s.114
8. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.-T.: «Xalq merosi» nashriyoti, 2004
9. Pospelov G.N. Teoriya literaturы.- M. : Vыsshaya shkola, 1978.
10. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. «Fan», 2006.
11. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi.-T.: «O'qituvchi», 2002.
12. Xalizev V.E. Teoriya literaturы.-Moskva: 2002.

**Internet saytlar**

1. http://youreng.narod.ru/teoper.html
2. http://www.twirpx.com
3. http://www.uz-translations.net
4. http://www.booksbooksbooks.ru

Сканировано с CamScanner

5. http://www.literature-online

## 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish sinovlari BAHOLASh MEZONLARI

Tayanch doktoranturaga kirish sinovlari yozma ish shaklida o'tkaziladi. Shundan har bir variantda 5 tadan savol bo'ladi.

| Talabgorning yozma ish javobiga qo'yiladigan talablar | Baholash ballari |
|---|---|
| a) berilgan savolni to'liq bilsa, uning mohiyatini tushunsa, u bo'yicha ijodiy fikrlay olsa, tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, xulosa va qaror qabul qilsa, o'z fikrini to'liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, mustaqil fikri asosida xulosalar chiqara olsa. | 86-100 |
| b) berilgan savolni yetarli darajada bilsa, uning mohiyatini tushunsa, savol yuzasidan tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, savolning nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha ochib bera olsa, o'z fikrini to'liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, xulosalar chiqara olsa. | 71-85 |
| v) berilgan savolni qisman bilsa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo'yicha o'z fikrini bayon qila olsa, gramatik xatolarga yo'l qo'ysa, qisman xulosalar chiqarsa | 55-70 |
| g) berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lmasa, o'z fikrini to'liq bayon qila olmasa va umuman javob yozmaslik. | 0-55 |

Сканировано с CamScanner